

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA
INSON, ERKINLIK VA VIJDON FOJEASI ("AXIR, MENGA KIMLAR
ISHONGANDI-YA" SHE'RI TAHLILI ASOSIDA)**

Nurmaxmatova Firusa Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Pushkin medali sohibi va o'zbek xalqining chin farzandidir. Shoir nafaqat nazmda, balki nasrning ssenariynavislik yo'nalishida, tarjima sohasida o'zidan o'zbek xalqida boy meros qoldirib milliy adabiyotimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shgan benazr ijodkor hisoblanadi. U qaysi janrda ijod qilmasin o'zi yozayotgan asarning har bir satrini qalb qo'rini, muhabbatini berib yozadi. Uning asarlarida shumchalar ko'p mazmun jamlanganki, o'quvchi uni har o'qiganida yangi narsalarni anglayveradi. Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodiy yo'lida turli mavzularga murojaat qiladi. Ulardan eng ko'p uchraydigani urush, tichlik qadri, Vatan, insoniylik, sevgi, sadoqat, bolalik, tabiat kabi mavzular sanaladi. Uning she'rlarida oddiy hayotiy misollar orqali insoniyatning eng katta muammolari ochib berilgan. Ushbu maqola Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodida inson, erkinlik va vijdon fojeasini shoir qalamiga mansub "Axir, menga kimlar ishongandi-ya" she'rining mazmunini, badiiy tahlili asosida yoritib berish uchun mo'ljallangan.

Abstract: Alexander Arkadevich Feinberg, People's Poet of Uzbekistan, People's Poet of Uzbekistan, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, winner of the Pushkin Medal and a true son of the Uzbek people. The poet is considered a unique creator who has left a rich legacy not only in poetry, but also in prose, screenwriting, and translation, making an incomparable contribution to the development of our national literature. No matter what genre he creates, he writes every line of his work with his heart and love. His works contain so much content that the reader understands new things every time he reads them. Alexander Arkadevich Feinberg addresses various topics in his creative path. The most common of them are war, the value of unity, the Motherland, humanity, love, loyalty, childhood, and nature. In his poems, the greatest problems of humanity are discussed through simple life examples. This article is intended to shed light on the tragedy of man, freedom, and conscience in the work of Alexander Arkadyevich Feinberg through a substantive, artistic analysis of the poet's poem "After all, who believed in me?"

Аннотация: Александр Аркаевич Файнберг, народный поэт Узбекистана,

заслуженный деятель культуры Узбекистана, лауреат Пушкинской медали и истинный сын узбекского народа. Поэт считается уникальным творцом, оставившим богатое наследие не только в поэзии, но и в прозе, сценарном искусстве и переводе, внося несравненный вклад в развитие нашей национальной литературы. Независимо от жанра, каждую строку своего произведения он пишет с душой и любовью. Его произведения настолько насыщены содержанием, что читатель каждый раз, перечитывая их, понимает что-то новое. Александр Аркадьевич Файнберг обращается к различным темам в своем творчестве. Наиболее распространенные из них – война, ценность единства, Родина, гуманизм, любовь, верность, детство и природа. В своих стихах он обсуждает важнейшие проблемы человечества на примерах из простой жизни. Цель данной статьи — пролить свет на трагедию человека, свободы и совести в творчестве Александра Аркадьевича Файнберга посредством содержательного, художественного анализа стихотворения поэта «В конце концов, кто в меня поверил?».

Kalit so'zlar: falsafiy lirika, erkinlik, mas'uliyat, vijdon azobi, tabiat motivi, inson motivi, ichki monolog, ichki monolog, antiteza, metafora, ramziy obraz, ritorik savol, axloqiy inqroz, poetik kompozitsiya.

Keywords: philosophical lyrics, freedom, responsibility, remorse, nature motif, human motif, inner monologue, inner monologue, antithesis, metaphor, symbolic image, rhetorical question, moral crisis, poetic composition.

Ключевые слова: философская лирика, свобода, ответственность, раскаяние, мотив природы, человеческий мотив, внутренний монолог, антитеза, метафора, символический образ, риторический вопрос, моральный кризис, поэтическое произведение.

XX asr o'zbek adabiyotida falsafiy lirika alohida yo'nalish sifatida shakllanadi. Bu davr she'riyati insonning ichki dunyosi, vijdon azobi, tarixiy va ijtimoiy jarayonlar fonida yuz kelgan ma'naviy inqroz masalalarini markaziy mavzuga aylantirgani bilan farqlidir. Ayniqsa inson va tabiat o'rtasidagi munosabat, erkinlik tushunchasi mohiyati va u bilan keladiga mas'uliyat muammosi o'sha davr ijodkorlar qatlami diqqat markazidagi mavzu sanalgan. Mana shu davrda ijod qilgan bir qator taniqli ijodkorlar qatorida Aleksandr Faynberg o'zining davr muammolariga o'zgacha munosabati, asarlarining falsafiy teranligi va axloqiy keskinligi bilan ajralib turgan.

Faynberg lirikasida lirik qahramon shaxsining ichki monologi, o'z-o'zini so'roq qilishi, ya'ni retrospektivligi, o'tmish bilan yuzlanish motivlari yetakchilik qiladi. Shoir insonni faqat ijtimoiy mavjudot sifatida emas, ma'naviy mas'uliyat egasi sifatida ham talqin qiladi. Uning she'rlarida erkinlik masalasi murakkab va ziddiyatlarga to'lib-toshgan hodisa kabi yoritiladi. Erkinlikka erishish jarayoni asosan hayotiy

yo'qotishlar,xatolar,ichki iztiroblarga sabab bo'ladi.Ana shu jihat tahlil qilmoqchi bo'lganimiz "Axir,menga kimlar ishongandi-ya she'rining asosiy go'yaviy markazini tashkil etadi.

Axir, menga kimlar ishongandi-ya,
 Pinhon umid qilib yurakka malham?!
 Maysalar, hayvonlar ishongandilar...
 Menga ishongandi onajonginam.
 Erkinlik deb barin boy berib qo'ydim.
 Onam qabri uzra yuzlarim shuvut.
 O't qo'ydim, maysalar qovjirab kuydi,
 O'q otdim, hayvonlar bo'lishdi nobud.

Ushbu parcha she'rning ilk bandi bo'lib lirik qahramonning o'z-o'zini so'roq qilishi,o'tmishdagi xato va mas'uliyatlarini tan olishi bilan boshlanadi."Axir,menga kimlar ishongandi-ya, Pinhon umid qilib yurakka Malham?!"- bu ritorik so'roq bo'lib,tashqaridan emas,balki qahramon qalb tubida yotgan vijddondan javob kutayotgan so'rovdur.Bu misrada ishlatilgan "Axir" so'zi kuchli ta'kid,pushaymonlik ma'nosini beradi.Lirik qahramon bir paytlar kimlardir unga qattiq ishonganini,umid bog'laganini,u esa o'sha bildirilga ishonchni oqlay olmaganini o'ylab xo'rsinadi."Pinhon umid" shu o'rinda yashirin,faqat ko'zlardangina anglash mumkin bo'lgan hisni ifodalaydi."Yurakka malham" metaforik ifodasi bu o'rinda ishonchning inson ruhiga tayanch bo'luvchi,unga dalda beruvchi kuch ekanligini ko'rsatadi.Bundan kelib chiqadiki,ishonch shunchaki oddiy bir so'z yoki his emas insonlarni o'zaro bog'lab turuvchi ma'naviy rishtadir."Maysalar,hayvonlar ishongandilar... Menga ishongandilar Onajonginam" misralarida ishonchni ishodlash uchun uchta subyektdan foydalanilagan.Bular o'simliklar,jonivorlar,ona obrazlari.Tabiat elementlariga "ishongandilar" deya ta'rif berib,shoir umumlashma ma'noni satrga yuklaydi.Bundan tashqari jonlantirish san'atining foydalanilishi insonning tabiat oldidagi burchlariga ishora qiladi.Birgina "Onajonginam" jumlasida o'zida mehr,hurmat,iztirob kabi tuyg'larni mujassamlashtirgan.Ona obrazi poklik,axloqiy mezonlar,tarbiya manbai ramzidir.Demak,qahramonimiz faqat tabiatga emas, insoniylikka ham xiyonat qilgan."Erkinlik deb barin yo'qotdim" misraning markaziy go'yaviy markazi hisoblanadi."Barin" so'zidan lirik qahramon erkinlik izidan ketib qo'lidagi bor-u yo'g'idan,unga bildirilgan ishonch,hurmat,mehrdan mosuvo bo'lganini tushunish mumkin.U erkinlikni oliy qadriyat sifatida ko'rib,boshqa qadriyatlarni qurbon qilganini keyin anglab yetadi.Lekin endi pushaymon-u nadomadlarga kech bo'ladi.Uning tanlovi katta yo'qotishga sabab bo'ldi.Bu tasvirlar erkinlik she'rda ideal his ko'rinishida emas,balki fojeaga asoslangan jarayondek ta'riflanganining ifodasidir."Onam qabri uzra yuzlarim shuvut" qatorida ko'rganimizdek,qahramon o'z pushaymonligi bilan onasi qabri yonida yuzma-yuz keladi.Uning afsusi, iztirobi vijdon

sudi bo'lmish onasi xotirasi qarshisida yuzining shuvutligidan ma'lum."O't qo'ydim, maysalar qovjurab kuydi, O'q otdim,hayvonlar bo'lishdi nobud" jumllariga e'tibor qaratayliga.Endi lirik qahramon unga nadomadlarini eslatuvchi har bir narsadan qutulishga,shu orqali bo'lsa ham ruhini o'rtayotgan pushaymonlik hissidan qutqarmoqchi.Bu barchasi alamdanda,endi u hayotidagi oliy qadriyat bo'mish onasida,mehr-muhabbatdan judo bo'ldi."O't qo'ydim","o'q otdim" so'zlari drammatizm kuchayishiga xizmat qilgan.Shu tariqa ilk band qahramon ichki sudida asoslangan,bu sudda hukm chiqaruvchi ham aybdor ham uning o'zi.She'ning keying bandlari aynan shu ayblarni anglash va xulosa chiqarishga qaratilgan.

Qushdek erkin bo'ldim, mana, nihoyat.

Kishandamasman-ku bamisoli qul?

Bolaligimdagi so'lim tabiat

Nega tushlarimga kirmaydi nuqul?

She'ning oldingi bandida lirik qahramon aybini tan olib pushaymon bo'lgan bo'lsa,endigi bandda ozodlikni qo'lga kiritganini e'lon qiladi.Mana shu mazmun dramatik burulishni hosil qildi.Chunki u onasidan ayrilgach boshqa narsalarni ham hayotidan yo'q qildi,ularga "o't qo'ydi".U ozodlikni e'lon qilishga qildi-yu bu kichik e'lon natijasi uning ichki kechinmalarida ziddiyat paydo bo'ldi."Qushdek yengil bo'ldim mana,nihoyat" satri u bergan e'lon tasdiqi.Qush ramziy tasvir bo'lib,bu yerda qahramon o'zi erishgan ozodlik tabiiy,cheksiz ekanligiga ishora qiladi."Mana,nihoyat" birikmasi esa u o'zini qiynayotgan barcha ayanchli hislardan oxir oqibat xalos bo'lganini ko'rsatadi.Ammo bu yerda ironiya belgilari bor.Sababi shundaki qo'lga kiritilgan ozodlik egasiga huzur-halovat,xotirjamlikni bermayapti."Kishandamasman-ku,bamisli qul?" qatorida "kishan" va "qul" obrazlari ijtimoiy-ramziy ma'noga ega.Kishan-tashqi qaramlik majburiyat belgisi.Qahramon endi o'zini erkin his qilayotganday ko'rsatmoqchi,o'zini shunga ishontirmoqchi.Afsuski,u ich-ichidan anglayotgani,his qilib turgani bu emas.U o'zini kishanlagan,qul qilgan,unga majburiyat yuklayotgan ishonchga,umidga,mehrga muhtoj.U o'z xatosini vaqtida anglaganida shuni tushungan bo'lardiki,bu majburiyatlar o'z-o'zidan uni zanjirlamagan,u muhtoj bo'lgani uchun shunday bo'lgan."Bolaligimdagi so'lim tabiat, Nega tushlarimga kirmaydi nuqul?" jumlasidan yuqoridagi fikrlar tasdiqi va davomi anglashiladi.Qahramon erkinlikka shuqadar mahliyo bo'lib,xotiralarini,muhabbatni ongostidan ham o'chirib tashlaganki,endi ular uning tushiga ham kirmay qo'ygan.Vaholanki,o'ziga erkinlikka chiqqanini uqtirmoqchi bo'lgan qahramon o'zi unutgan qadriyatlar,tuyg'ular unga kerakligini,yolg'iz ozodlik ularning hammasini o'rnini bosolmasligini anglaganday.U erkinlikka chiqishdi-yu,o'zidagi poklikni yo'qotganini tushunib o'zini so'roqqa tutiyapti.

Qancha mamlakatlar tushdi kulfatga,

Ummonlarim qani? Qani dengizim?

Boqdim osmondagi noxush kalxatga,

Asli shu kalxatni uchirgan o'zim.

Oldingi bandlarda lirik qahramon ayb va ichki iztirob kechinmalari haqida so'z yuritgan bo'lsa, endi u yuqoridagi bandda ayblari natijasida yuzaga chiqqan muammolar ko'lami kengligiga, eng achinarlisi ichki sudi hammasiga o'zi aybdor ekanligi yana qayta-qayta ta'kid qilayotganiga ishora beradi. "Qancha mamlakalar" deya u vijdon, poklik, mas'uliyat, ishonch, umid, muhabbat, samimiyat kabi inson qalbining va ruhining turli qismlarini aytmoqchi. Uni ruhiga ozuqa berib, hayotiga mazmun, yashashi uchun sabat bo'lib turgan "ummonlar", "dengiz" qayerga g'oyib bo'ldi. Uning ozodligi orqasidan erishgani bo'shliq, xolos. "Osmon" so'zi cheksizlik, to'siqsizlik, erkning timsoli. Buni qarangki, qahramon ko'ngil osmonida baxt emas, yemirilish, vayronkorlik, kulfat ramzi- "kalxat" uchib yuribdi. "Noxush" sifati "kalxat" so'zi orqali ifodalanayotgan yo'qotishlarga yanada urg'u bermoqda. Mana u yana qalbidagi bo'shliqning, yolg'izlik, pushaymonlikning sababchisi aynan o'zi ekanligini tan olib: "Asli shu kalxatni uchirgan o'zim"- deyapti.

Oyog'im ostida yerlar sho'r, taqir,

Ketyapman yelkamda safar xaltam shay.

Uyatdan yuragim o'rtanar, axir,

Issiqda tashnalik qiynar ayamay.

Avvaliga tan olgisi kelmagan, bir anglab keyin bo'yin tovlashga harakat qilgan gunohlariga faqat o'zi mas'ul ekanligi tushunishdan boshqa yo'li yo'qligini anglagan qahramon iztirob, g'am-qayg'u yo'lida ketmoqda. "Sho'r, taqir yer" bu- vijdonning alamli, azobli yerlari, qo'ldan chiqargan ne'matlaridan ozuqlanib turgan lirik qahramon ruhiyati qurib qaqshab qolganidan dalolat beruvchi jumla. "Ketayapman yelkamda safar xaltam shay, Uyatdan yuragim o'rtanar, axir" misralari ta'riflangan sahnada qahramon o'z ayblari bilan yuzlashib, ularni bo'yniga olidi va ularning natijasiga qaray olmay ketmoqchi, chunki "uyatdan yuragi o'rtanib" ketmoqda. Bu uyat keyinga qatorida "tashnalik" deb atalib u qalbini yondirayotgan vijdon "issig'idan" paydo bo'lgan: "Issiqda tashnalik qiynar ayamay".

Buloqqa tiz cho'kib, egilib pastga

Chol kabi suv icha boshlayman uzoq.

Suvdagi aksimga qo'shilib asta

Yer qa'riga singib ketadi buloq.

Bu misralar she'rning eng ramziy va fojeaviy nuqtasidir. "Buloq" so'zi hayot, poklikni bildiradi. Lirik qahramonning "tiz cho'kishi" bu- kamtarlik, tavba, taslim bo'lishlikning ifodasi. Endi u hayotda ancha narsalarni ko'rib tajriba orttirgan, xatolari uchun og'ir badal to'lagan shaxsga- "chol" ga aylandi. Qahramon ruhiy jihatdan erta qarigan, holdan toygan. Unga gunohlaridan poklanishi uchun "uzoq" vaqt kerak. "Suvdagi aksiga qo'shilib asta" qatorida "suvdagi aks" o'zini anglash, o'ziga

yuzlanish demakdir. Qahramon suvga qarab gunohlari tufayli kelib qolgan ahvolini ko'radi. Biroq shu pallada buloqning "yer qa'riga" singib ketishi umid uni tark etishini, o'sha umid bilan qo'shilib lirik qahramonning butun dunyosi halok bo'lganini anglaymiz.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynberg tomonidan yozilgan ushbu she'r yuksak falsafiy mushohadani o'z ichiga olgan asardir. U insonning o'z qo'li bilan yaratgan fojeasini ochib beradi. She'rni o'qib, undagi tasvirlarni tahlil qilib shuni anglash mumkinki, erkinlik meyorida bo'lsagina, insonning yuksalishi, rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Haddan tashqari erkinlik insonni kulfatga, keyin afsus qilinadigan yo'qotishlar ro'baro' qiladi. Erkinlik ma'naviy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirilganida yuksak qadriyatga aylanishi, og'ir xatolarni oldini olishi ochiqlanadi. Bir qarashda tabiat tasvirlari va obrazlaridan iborat bu asar shunchalik teran falsafiy, tarbiyaviy ma'no anglatishi insonni hayratga soladi. Uni e'tibor bilan o'qigan har bir kitobxon hali xatolar qilmasdan, she'rdan hayot saboqlarini o'rganadi va Faynberg shaxsi va ijodiy yo'lga nisbatan chuqur ehtiromni qalbdan tuyadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
2. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
3. n.ziyouz.com
4. <https://arm.samdchti.uz/library/download/692>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
6. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.